
Hech qayerda ishlamaydigan shaxsdan qancha aliment undiriladi?

Agar aliment to'lovchi ishlamaydigan bo'lsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo'lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O'zbekistondagi o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Agar qarzni bunday belgilash taraflardan birining manfaatlariga jiddiy putur yetkazsa, manfaatlariga putur yetkazilgan taraf sudga murojaat qilishga haqlidir.

Sud taraflarning moddiy va oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni inobatga olib, qarzning pul bilan to'lanadigan qat'iy summasini belgilashi mumkin.

MIB Marg'ilon shahar bo'limi.

2023-02-22 12:44:04